

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



UO'K: 811.512.122=512.133

O'ZBEK VA QOZOQ XALQ MAQOLLARIDA KVANTITATIVLILIK

КВАНТИТАТИВНОСТЬ В УЗБЕКСКИХ И КАЗАХСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

QUANTITATIVENESS IN UZBEK AND KAZAKH FOLK PROVERBS

Qahhor Vahobovich Yo'Ichiyev 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Annotasiya

Zamonaviy turkiy dunyoda qardosh xalqlar turmush tarzi, madaniyatining yaqinligini maqollar orqali tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Maqolada o'zbek va qozoq xalq maqollari orasidan kvantitativlik xususiyatiga egalari tanlab olingan hamda qiyosiy tahlil etilgan. Maqolaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi ko'rsatilgan. "Adabiyotlar va metodologiya" qismida esa mavzuga oid manbalar sanalib, ulardan eng muhimlari metodologik asos sifatida olingan. "Natija va muhokamalar" da maqollardagi miqdor, son mazmuni ifodalash turli maqsadlarda amalga oshirilgani haqida fikr yuritilgan. Jumladan, o'zbek va qozoq xalq maqollarida bevosita inson yoshini bildiruvchi sonlar keltirilib, ularda inson odob-axloqi haqidagi ibratli fikr ta'kidlangan. Ish oxirida esa izlanish davomida kelingan xulosalar sanab ko'rsatilgan. Foydalanilgan adabiyotlar shakllantirilgan.

Аннотация

В современном тюркском мире исследование сходства образа жизни и культуры родственных народов через пословицы имеет научно-практическое значение. В статье проводится сравнительный анализ узбекских и казахских пословиц, обладающих свойством количественности. Во «Введении» показана актуальность темы. В разделе «Литература и методология» перечислены источники по теме, наиболее значимые из которых выбраны в качестве методологической основы. В разделе «Результаты и обсуждения» отмечается, что количественные и числовые выражения в пословицах используются в различных целях. В частности, приводятся пословицы, в которых числа обозначают возраст человека, подчёркивая нравственно-воспитательный смысл. В заключительной части статьи сформулированы основные выводы исследования и представлен список использованной литературы.

Abstract

In the contemporary Turkic world, exploring the cultural and lifestyle similarities among fraternal nations through proverbs holds both scholarly and practical significance. This article presents a comparative analysis of Uzbek and Kazakh proverbs with quantitative features. The introduction outlines the relevance of the topic, while the literature review and methodology sections list the sources related to the subject, highlighting the most essential ones as the methodological foundation. The "Results and Discussion" section shows that numerical and quantitative expressions in proverbs serve various communicative and moral purposes. In particular, proverbs containing numbers denoting human age are examined in both Uzbek and Kazakh, emphasizing the instructive moral insights they convey. The conclusion summarizes the key findings obtained throughout the study, followed by the list of references used.

Kalit so'zlar: maqol, matal, parema, kvantitativlik, mazmun, poetika, qofiya.

Ключевые слова: пословица, поговорка, парема, квантитативность, значение, поэтика, рифма.

Key words: proverb, saying, paremia, quantitateness, content, poetics, rhyme.

KIRISH

Ma'lumki, o'zbek va qozoq xalqlari qardosh xalq sifatida tili, dini, turmush tarzi o'zaro yaqin bo'lganligi uchun ularning badiiy tafakkurida ham yaqinlik kuzatiladi. Xususan, maqollarda ishlatiladigan son, miqdor, me'yor, tartib-qoida kabi mazmunlarni bildiruvchi kvantitativlik alohida muammo hisoblanadi. Chunki kvantitativlik maqol mazmunini teran va salmoqli bo'lishini ta'minlaydi. Lekin adabiyotshunoslar, jumladan, folklorshunoslar bu muammoga nisbatan kamroq e'tibor qaratishmoqda.

Ikki xalq maqollarida kvantitativlik masalasi orqali maqollarning ixcham, quyma shakliga uzoq yillik izlanish natijasida kelingan. Ularda ilgari surilgan mazmun ko'p yillik tajriba mahsuli sanalgan hikmatlar, hayotiy tajribalar mazmuni ifodalangan. Maqolda xalq badiiy tafakkurining

ADABIYOTSHUNOSLIK

yuksak ifodasi namoyon bo'ladi. Ayniqsa, turkiy xalqlar o'rtasida madaniy integratsiya kuchayayotgan bugungi kunda mazkur masalani tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Manbalarda maqollardagi miqdorni anglatuvchi, umuman olganda, narsaning oz yoki ko'pligi, jamlovchi ma'nosi haqida qadimdan fikr bildirilgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning miqdor mazmuniga diqqat qilgan va maqollardagi miqdor mazmunini fikr isboti uchun keltirgan. Masalan, "Devon"ga "uldan – pocha" so'zini kltirib "itga uyat kelsa, oriyat qilsa, pocha tashlasang ham, yemaydi" degan maqolini izohlaydi [Koshg'ari, 138]. Olim it so'zining mazmuniga barcha itlar ma'nosini singdirgan. Maqolga jamlovchi, ko'p itlarni nazarda tutuvchi xususiyatni singdirilgan.

Aslida kvantitativlik asosida "kvant (nem. Quant < lotin. "quantum"- "qancha")" so'zi turadi. U esa ma'lum miqdorni, o'lchovni bildiradi [Словарь.228]. Shuningdek, maqoldagi vaznni aniqlashda, bo'g'in miqdoriga e'tibor qilinishida ham kvantitativlikka murojaat etiladi. "Turli she'riy sistemalardagi vaznlarni umumlashtirilib, ikki katta guruhga bo'lish mumkin: a) miqdoriy vaznlar (kvantativ she'r tuzilishi); 2) sifatiy vaznlar (kvalitativ she'r tuzilishi)". [Харамов, 150,195]. Shu ma'noda maqoldagi kvantitativlikni qiyosiy folklorshunoslik nuqtaiy nazaridan ham o'rganish lozim. Bundan tashqari, maqolda real voqelikning badiiy ifodalash soni, miqdori, darajasi (oz yoki ko'pligi)ni tahlil etish hamda tegishli hukmni ifodalashga xizmat qiladigan sonlar ham faol qo'llaniladi. Bu esa maqol mazmuni va uning shakily tomonida kvantativlik masalasini tadqiq etishda uning ham mazmun, ham shakily xususiyatiga e'tibor qaratishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda o'zbek va qozoq olimlari hamkorlikda maqol va matallar, keng ma'noda paremalarni o'rganishi kuchaydi. Fikr isboti uchun Qozoq va o'zbek paremiologik lug'atini keltirish mumkin.[1] Bugungi kunda "Turkiy xalqlar paremiologik lug'at"ning o'n besh jildlik chog'ishtirma, ruscha, inglizcha izohli, variantli shaklini yaratish borasida ham ishlar olib borilmoqda. Bu esa turkiy xalqlar maqollaridagi kvantitativlik, ya'ni miqdor, son kabi mazmunni anglatuvchilarini saralab olish hamda ularning badiiy-esetik vazifasini qanday sifat o'zgarishga uchrashini tadqiq etish, yoki ikki xalq maqollarning qo'llanish doirasidagi o'ziga xoslik va yaqinlikni tahlil qilishni talab etadi.

Aslida bu masala tadqiqi boshlangan. D.Turdialiyeva maqollarning obrazli tafakkur, metaforik ma'no, allegorik mazmuni haqida to'xtalib o'tgan: "Maqollarda biror hodisa yoki voqea obraz orqali tasvirlanadi. "Yuzaki ma'no oddiygina tuyulishi mumkin. Lekin tasvir orqali ular teranroq ma'n yetkazadi" [6, 24]. Mazkur fikmi davom ettirib, maqollarning badiiyatini yanada chuqurroq ochish mumkin. Aslida maqol majoziy, ramziy yoki ko'chma ma'nolarda qollanishi har ikki xalq folklorida ham uchraydi.

Boshqa bir tadqiqotchi esa maqollar tadqiqida quydagi xulosaga kelgan: "Kvantitativlikning mazmuni xalq maqollarida miqdor, me'yordan ortiqlik-kamlik, tartib va mulohaza o'rnida ishlatilib, ularda xalqqa tegishli bo'lgan dunyoqarash, munosabat va mentalitet belgilari ustuvorlik qiladi"[5, 24]. Bu esa maqollar poetikasida kvantativlik xususiyatini tadqiq etish zaruratini izohlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Manbalardan ma'lum bo'lmoqdaki, maqollardagi miqdor, son mazmunini ifodalash turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Xususan, o'zbek va qozoq xalq maqollarida bevosita inson yoshini bildiruvchi sonlar keltirilib, ularda inson odob-axloqi haqidagi ibratli fikr ta'kidlanadi. Masalan, *Oltmish yashar ahmoqdan, olti yashar dono yaxshi/ Алпыс жасар ақымақтан алты жасар бала артық* [2,22-23] Avvalo shuni aytish kerakki, ikkala xalq maqolida ham antiteza usulidan foydalanilgan. Har ikki maqolda ham oltmish-olti sonlari qo'llanilgan. Lekin qozoq maqolida ahmoq va dono mazmuniy ziddiyati ishlatilmaydi. O'zbek maqolida esa ikkinchi mazmuniy ziddiyat ahmoq va dono so'zlari yordamida yuzaga chiqqan. Xususan, kishining odobi, jamiyatda o'zini tutishi yoshi kattalashib borishi bilan shakllanib, ma'lum mezonga tushishi, agar shunday bo'lmasa, u kulgiga qolishi va keraksiz odamga aylanishi ta'kidlangan. Maqollardagi olti va oltmish sonlari ramziy ma'no bildirib, tajribali va tajribasiz, aqlli va aqlsiz kabi mazmunlarni ifodalashga ham xizmat qilgan. Qozoq maqolida dono degan so'z ishlatilmagan. Unda oltmishga kirgan kaltabin, fikrlamaydigan kishidan hali tajribasiz, kelajakda aqlli va tajriba orttirish mumkin bo'lgan bola ustun qo'yilishi bilan bolaga katta umid, ishonch bildirilgan. Chunki oltmishga kirib ham aql bitmagan kishiga ishonish qiyin bo'lgach, kelajagi oldinda turgan boladan umid qilinadi.

Boshqa bir maqolda esa savdogarlik va dehqonchilik sohalarining xususiyatlari haqidagi mazmunni ifodalash uchun aynan sonlardan foydalanilgan, *Bozordan qolgan bir qolar, ekishdan qolgan bir yil qolar. / Базардан қалган бір қолар, егіннен қалган бір жыл қолар. [2,42]* Mazkur maqolda foyda va daromad olishda vaqtning qadri qanchalik muhimligi alohida ta'kidlangan. Shu yerda har ikkalla xalq turmush tajribasida ham dehqonchilikka xos xususiyat aniq aytilgan. Kishilar vaqtning ahamiyatini to'g'ri tushinishi va anglashi muhimligi haqidagi o'git berilgan. O'z vaqtida qilinmagan ishning zararari umri bir yil qiyinchilikda, foydasiz o'tishiga tenglashtirilgan. Shuningdek, yuqoridagi maqollarda dehqonchilik madaniyatida ob-havoni bilish ko'nikmasining ahamiyati, tabiat bilan uyg'unlik asoslari ham tilga olingan. Muhimi, mazkur mazmun mehnatsevarlik, hushyorlik, tajribakorlik g'oyalarini ifodalaydi. Unda bitta kichik amal yil davomida afsus, nadomatga sabab bo'lishi keltirilgan. Bu esa ikki xalqning ham qardoshlar sifatida turmush tarzida yaqinlik borligini isbotlaydi. Shuning uchun maqollar mazmuni ham, aytilishi jihatidan ham deyarli bir xilligi ko'rinadi. Faqat fonetik jihatdan farqlar bor, xolos.

O'zbek va qozoq xalqlarining ajdodlari bir bo'lgani, dini, turmush bir xil bo'lgani natijada ko'plab maqollar deyarli bir xil ekanligi ko'zga tashlandi. Fikr isboti uchun quyidagi maqolni keltramiz: *Besh kunim – xush kunim. / Бес күнім – хош күнім [2, 51]*. Mazkur maqollarda 3+3 tarzda turoqlangan va barmoq vaznidagi olti hijolik vazn hosil qilgan. Shuningdek, har ikkalasida ham besh-xush / bec – xosh qofiyasidan foydalanilgan. Ammo qozoq maqolida och qofiya, o'zbek maqolida to'liq qofiya ishlatilgan. Bu yerda miqdorni bildiruvchi son, asosiy mazmundan tashqari, inson hayotiy maqsadini, idealigini ham anglatadi. Shuningdek, hayotsevarlik, insonparvarlik, kechirimlilik kabi g'oyalar ham ixcham tarzda matnga singdirib yuborilgan. Bu uzoq yillik hayotiy tajriba, tiriklikning mohiyatini tushunish va zarur falsafiy xulosaga kela bilash qobiliyatini ham namoyon etadi.

Biz ikki xalq uchun ham yagona mushtarak meros sanalgan "Devoni lug'otit turk"da sanoq soni ishlatilmasdan, kvantativ mazmun ifodalash mumkinligi haqida yuqorida ta'kidlagan edik. Xuddi shunday xususiyat har ikkala xalq maqollarida ham uchraydi. Buning ustiga vatanparvarlik, jamoa bilan yashash, boshqalarni hurmat qilish kabi mazmuni bilan u M.Koshg'ariy maqoliga ham yanada yaqin keladi. Masalan, *Ayрилгanni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer / Бөлінгенді бөрі жейді, жарылғанды жау жейді. [2,51]*. Maqollardagi ayrilgan, bo'lingan so'zlari umumiylikni anglatib, jamoadan ayrilgan kishi yoki kishilar miqdorini ta'kidlaydi. Shu yo'l bilan ko'pchilik va ozchilik munosabatida ko'pchilikka ergashish lozimligi uqdiriladi.

Maqollarning tuzilishida ham bir nechta o'zgarishlari bor. 1. "Bo'linganni bo'ri yer" jumlasini o'zbek maqolida ikkinchi qismda kelgan. Qozoq maqolida esa birinchi qismda keladi. 2. O'zbek tilidagi ayiq obrazi o'rinda, qozoqchada dushman ma'nosini bildiruvchi "jay" so'zi qo'llangan. Bu esa maqoldagi bosh harflar ohangdoshligini ta'minlab, asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini kuchaytirgan. Ammo mazmun o'zgarmagan. To'g'ri, o'zbek maqolida majoz, ramz kuchaygan, ammo qozoq maqolida aniqlik, nisbatan real voqelikni ifodalash yetakchi o'ringa chiqqan. Ba'zi fonetik farqlar yaqqol mavjud. Lekin har ikkalasida ham b, a, b, j tovushlarining ohangdoshligi mazmundan anglangan tushunchaga estetik ta'sirchanlik bag'ishlagan.

Qizig'i, o'zbek va qozoq xalqining madaniyati, turmush tarzidagi o'xshashlik, bu ikki millat kishilar fikrlashida, borliqni anglashidagi yaqinligi ularning matal va maqollarida yuzaga chiqishi, hayotiy xulosasidagi mushtaraklikda ham uchraydi. Masalan, quyidagi matalda vaziyatning kvantativlik mazmuniga ishora bor. *Goh pirdan, goh muriddan / Бирде пирден, бирде мүридмен [2,54]* Avvalo, matalda ustoz va shogird munosabati aks etganini ta'kidlash kerak. Ikkinchidan esa ijtimoiy adolat haqidagi ta'kid ham bor. Uchinchi mazmuniy qatlamda esa vaziyat taqazo bilan katta odam kichiklarning ham hurmatini joyiga qo'yishi haqidagi nasihat bor. Lekin har ikki matlda ham kvantativlik kamida ikki vaziyatni taqqoslash asosida yuzaga chiqqan. Aniqrog'i, goh ustoz, goh shogird ishi tushib birinchi bo'lib gap boshlaydi, degani o'zaro hurmat, ishonch mazmunida ham ishlatiladi. Mazkur matalda har ikki xalq madaniyatidan tashqari, fikrlash tarzi ham o'xshashligi, ular go'yo bir ekanligi yuzaga chiqqan. Faqat ba'zi fonetik tavofutlarga ular ikki xalqqa tegishli ekanini ko'rsatadi, xolos. Qolgan jihatlarida mushtaraklik kuzatiladi.

Maqollarda vatanparvarlikdan tashqari, davlat va jamiyat qurish, yurtni adolatli boshqarishda ham ikki xalq uzoq yillik tarixi va qat'iy xulosasi mushtarakligi ko'rinadi: *Xon bir bo'lsa, el tuzalar, ikki bo'lsa, yurt buzilar / Хан біреу болса ел түзелер, Екеу болса*

ADABIYOTSHUNOSLIK

бўзылар [2, 218] Mazkur maqol har ikki xalqda ham bir nechta mazmunda ishlatilishi mumkin. Ammo ular aynanlikka ega. Keng ma'noda mas'uliyatli ishni bajarish uchun bitta odam bosh bo'lishi shartli, agar rahbar ko'paysa, ish bajarilmay, chala qolishi haqidagi hayotiy haqiqat bor. Bundan tashqari, maqol yurtni to'g'ri boshqarishga bitta xon kerakligi, gar ikkita bo'lsa, yurt boshboladoqlikka yuz tutishi haqidagi nasihat bor. Yana bir mazmuniy qatlami ijtimoiy g'oya, xalq ideali yagona bo'lishi shartligi, agar ular ko'paysa, jamiyatda yakdillik yo'qolishi haqidagi fikr aytilgan.

Ko'rinadiki, bu borada qadimda ulug' saltanat qurgan turkiylarning o'g'itlari ikki xalqda ham birdek yashab kelmoqda. Har ikki maqolda ham qofiya (tuzilar-buzilar, түзелер-бұзылар) ishlatilgan. Shuningdek, ikkisida ham shart qo'shma gap mavjud va ijtimoiy falsafa yetakchilik qiladi.

Jamiyat va undagi o'zaro hurmat, insonparvarlik, totuvlik mavzusi quyida maqolda sal boshqaharoq tarzda davom ettirilgan: "O'yindan o't chiqsa, ikki kunga tatir, qishloqdan ahmoq chiqsa, bir umrga yetar / Иргенен өрт шықса, ұшқыны үйіңе тиеді. Ауылдан тентек шықса, салқыны елге тиеді [2, 252]. Xalq or-nomusi kuchli ekanligi haqidagi fikr bor. Agar biror joyga o't ketib, uy yonsa, uning azobi tezda bartaraf etilishi mumkinligi, ammo bitta yomon odam chiqsa, uning dog'ini yuvish uchun bir umr yetmasligi haqidagi o'git bor. Bundan tashqari, uning bir qancha variantlari, sinomik qatorlari ham borki, bu borada har ikki tomon ham qator tajribalarga egaligi ko'rinadi. "Palagi buzilgan tuzalmas, tuzalsa ham yeb bo'lmas". Bu maqolda ham har kishi avlodi, qarindosh-urug'l obro'- e'tiborini saqlashi, g'urur, or-nomusi asrash, agar bitta xato qilisa, butun avlodu-ajdodlari intilishi, hayotiga salbiy ta'sir etishi haqidagi salmoqli fikr ilgari surilgan. Maqolda odamlar inoq, totuv, hushyor va yuksak ahloqiy mezonlar asosida yashashi shartligi aytilgan. Lekin hayotda ba'zan tushunmovchiliklar, ahmoqliklar kelib chiqishi mumkinligi, agar shunaqa yomon vaziyat yuz bersa, oila, jamoat, qishloq bir umr bir-birining oldida vijdoni qiynalib yurishi ta'kidlangan. Bunda kvantitativlikning ozchilik va ko'pchilik, qisqa muddat va uzoq muddat kabi shakllariga asoslanilgan. Qozoqcha variantida ham o'sha mazmun bor, ammo kvantitativlikda katta va kichik mazmun maydoni bilan cheklanilgan.

Kvantitativlik xususiyatidagi ba'zi maqollar qozoq tilida nisbatan kengroq bo'lsa, o'zbek tilida uning bir qismi faol ishlatilishi ham kuzatildi. Masalan, "Yuz qarg'aga — bir shunqor" [112] / Мың жабыға — бір түлпар, мың үйрекке — бір сұңқар, мың қарғаға бір — кесек (et). Bir qarashda bu maqollarda yaqinlik yo'qdek tuyuladi. Lekin mazmun jihatidan har ikki maqol ham juda yaqin keladi. Qozoq xalq maqolida majoziy obraz ko'proq bo'lib, uning ishlatilish joyi ham nisbatan kengroqdek tuyuldi. Mazkur maqolda qozoqlar mingta otning hammasi ham tulpor bo'lavermasligi, hamma qush ham lochin emasligini ta'kidlar ekan, aqlsiz, qo'rqqoq odamlarning bir galasiga bitta harakat kifoya ekanligini ta'kidlashadi. Shu yo'l bilan haqiqiy iste'dodli odam, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy tulpor va lochin kam uchrashi haqida nasihat qilishadi. Shu yo'l bilan hamma gap otlar sonida emas, balki zoti tozaligi, sifatida ekanligini alohida ta'kidlashadi.

XULOSA

1. Maqollar ikki xalq madaniy qadriyatlari, urf-odati va dunyoqarashini ifodalovchi qimmatli manba bo'lib, ularda sanalgan xususiyatlar ba'zan aniq miqdorga asoslanadi. Bu maqol mazmunini tushunish va tunglovchiga tezroq yetkazilishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, janr tabiati, majoziyliigi, aforistikligi, ixshamliligi, teran mazmun ifodalashi ham ma'lum miqdorga tayanadi.

2. O'zbek va qozoq xalq maqollari genezisi, ba'zi mazmuniy-struktur jihatdan yaqinligi kuzatiladi. Ammo Yangi O'zbekiston sharoitida ular o'rtasida aniq mazmuniy farqlanish ham uchrashi kuzatildi. Boisi, maqollardagi mazmun yoki badiiy-estetik komponentlar aniq kvantitativlik kasb etishida maqolning shakllanish jarayoni, ishlatilish maqsadi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. 1 том. Таржимон ва нашрга тайрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960. – 500 б.
2. Қазақ және өзбек тілдерінің салыстырмалы-паремиологиялық сөздігі (орыс, ағылшын тілдеріндегі қысқашаа түсініктемелерімен). Сөздік. (Құрастырушылар: Ескеева М, Рахмонов Н, және басқа.). – Астана: «Бұлатов А.Ж.» ЖК, 2022. – 289 б.
3. Словарь иностранных слов. – 18-е изд. – М.: Русский язык, 1981. – 624 с.
4. Хатамов Н.Т., Саримсоқов Б.И. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоғли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 378 б.

5. Karimova Sh. B. Turli tizimli tillarda kvantitivlik maydoni. 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik. Filog. fan. b. falsafa doktori (PhD) avtorf. – Farg'ona, 2025. – 54 b.

6. Turdiyaliyev D.S. O'zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari. Fililogiya fanlari doktori (DSc) diss.avto-ref. – Farg'ona